



MA'NAVYI-AHLOQIY TARBIYA MEXANIZMLARINI ETNOPSIXOLOGIK QADRIYATLAR ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH

Ismadiyarova U.A.

O'zMU Pedagogika va umumiy psixologiya kafedrası tadqiqotchisi

Tayanch so'zlar: ma'naviy-axloqiy tarbiya, pedagogik jihat, oliy ta'lim muassasalari, masofaviy ta'lim, talabalar, milliylik, shaxs, milliy tarix.

Ключевые слова: духовно-нравственное воспитание, педагогический аспект, вузы, дистанционное образование, студенты, национальность, личность, отечественная история.

Key words: spiritual and moral education, pedagogical aspect, universities, distance education, students, nationality, personality, national history.

Shaxs ma'naviy-axloqiy tarbiyasi dastlab oila sharoitida shakllanadi va jamiyat ma'naviyatini belgilovchi mezon sifatida namoyon bo'ladi. Buning asosida ta'lim muassasasida o'quvchi va talabalarning ma'naviy-axloqiy tarbiyasini ta'minlash va mustahkamlashda maxsus ta'lim-tarbiyaviy dasturlar asosida ma'naviy-axloqiy ishlar samaradorligi oshirib boriladi. Shu boisdan, madaniy merosdan, bugungi kun qadriyatlaridan to'g'ri foydalana olish, tarixdan to'g'ri xulosa chiqara bilish, o'z tarixiga va bugungi ahvoriga, madaniy merosi va ma'naviy qadriyatlariga, diniga va axloqiga va huquqiy amaliyotiga, turmush tarziga tanqidiy ko'z bilan qaray olish – Yangi O'zbekiston taraqqiyotining muhim ma'naviy asosidir. Mana shu ma'naviy asos har bir yosh avlodning ma'naviy-axloqiy tarbiyasini ta'minlashi bilan jamiyat ma'naviyati qaror topishi tabiiydir. Aksincha, bo'lsa esa har bir yoshni jamiyatimizda bo'layotgan o'zgarishlarni noto'g'ri talqin etishga olib keladi. O'zbek xalqida ta'lim-tarbiyaning o'ziga xosligini inobatga olgan holda Vataniga, xalqiga, oilasiga, istiqloq g'oyalariga sadoqatli, fidokor, mustaqil fikrlaydigan, dunyoqarashi keng, e'tiqodi yuksak, iqtidorli, tashabbuskor, mas'uliyatli, ma'naviy va jismoniy barkamol avlod voyaga yetadi. Ma'naviy-axloqiy tarbiyasi shakllangan talabalar o'z kasbining mas'uliyatini hamda jamiyat osoyishtaligini saqlash kabi vazifalarni anglab yetadi.



Yuksak manaviyatli pedagoglar esa o‘zi ta’lim beraligan talabalarini insonparvar, vatanparvar, axloqiy jihatdan pok, bilimli, kamtar, oliyanob qilib tarbiyalaydi. Ma’naviy-axloqiy tarbiya ilm-fan, falsafa, axloq, huquq, adabiyot va san’at, xalq ta’limi, ommaviy axborot vositalari, urf-odatlar, an’analar, din va boshqa ko‘plab tarixiy amaliy va zamonaviy qadriyatlarning ta’sirida shakllanadi. Aynan shu qadriyatlar avvalo oilada hamda ta’lim muassasalarida ota-ona va pedagoglar ta’sirida shakllanadi. O‘zbek xalqi qadimdan ma’naviy-axloqiy tarbiyaga alohida e’tibor qaratgan. Bugungi kunda ma’naviy-axloqiy merosdan foydalanib, Yangi O‘zbekistonning talablariga javob beradigan, o‘zi egallagan kasbining mahoratli kadrlarini tarbiyalash har bir oliy ta’lim muassasasining muqaddas burchidir. Bu burchni sharaf bilan ado etish oliy ta’lim muassasasida yosh avlod ongiga avlodlar shajarasi, kasb-kori, urf-odatlar, an’analar, tarbiya usullari, jamiyat taraqqiyotidagi o‘rni, o‘ziga xos ijobiy tarixmi singdirish, undan g‘ururlanish hissini tarbiyalashdan boshlanadi. O‘z yurtining tarixidan g‘ururlangan inson o‘z o‘lkasi, millati, xalqi, tili, madaniyatidan g‘ururlanishi, uni avavlab-asrashi, dunyoga ko‘z-ko‘z qilishi tabiiydir. Buning uchun ta’lim jarayonida talabalarning ongiga boshlab «siz tarixi boy, ulug‘ millatning farzandisiz», “sen ulug‘ mutafakkirlar, allomaizamonlarni dunyoga keltirib, tarbiyalagan bobokalonlarning avlodisiz” kabi tushunchalarni singdirib bormoq lozim. Mazkur vazifalarni amalga oshirishda talabalar o‘zlariga qo‘yilgan maqsadlarga erishish o‘zlariga bog‘liq ekanligini, ya’ni bu narsa ularning sobitqadam shijoatiga, to‘la-to‘kis fidokorligiga va cheksiz mehnatsevarligiga bog‘liq ekanini anglab yetishlari kerak.

Talabalarning ma’naviy-ahloqiy tarbiyasini etnopsixologik qadriyatlar orqali rivojlantirish mexanizmlari haqida batafsil ma’lumot quyidagicha bo‘lishi mumkin:

1. Etnopsixologik qadriyatlar va ularning tarbiya jarayonidagi o‘rni. Etnopsixologiya milliy psixologik xususiyatlarni, xalqning mentaliteti, dunyoqarashi va axloqiy qadriyatlarini o‘rganadi. Bu qadriyatlar orqali tarbiya jarayonida talabalarga milliy o‘zlik, vatanga muhabbat, milliy g‘urur kabi tuyg‘ularni shakllantirish mumkin.

2. Milliy qadriyatlar va an’analarni integratsiya qilish. Talabalarning ma’naviy-ahloqiy tarbiyasida milliy bayramlar, urf-odatlar, xalq o‘yinlari va qo‘shiqlar orqali milliy qadriyatlarni tarbiyaviy jarayonga kiritish katta ahamiyatga ega. Bu ularning milliy madaniyatga bo‘lgan hurmatini oshiradi va milliy identifikatsiyani kuchaytiradi.

3. Ta’lim va tarbiya jarayonida etnopsixologik yondashuv. Ta’lim tizimida milliy psixologik xususiyatlarga mos dasturlar va uslubiyotlardan foydalanish muhimdir. Bu, talabalarning o‘z millati tarixi, madaniyati va san’atiga qiziqishini oshiradi va ularni ma’naviy jihatdan boyitadi.



4. Oilaviy qadriyatlarning tarbiya jarayonidagi roli. Oila – etnopsixologik qadriyatlarni uzatish va saqlashning asosiy muhitidir. Oila muhitida shakllangan ma'naviy-ahloqiy qadriyatlar ta'lim jarayonida mustahkamlanadi. Shu sababli, oilaviy tarbiya va maktab tarbiyasi o'rtasida uzviy bog'liqlikni ta'minlash muhimdir.

5. Etnopsixologik qadriyatlar va zamonaviy texnologiyalar. Zamonaviy texnologiyalar orqali etnopsixologik qadriyatlarni yosh avlodga yetkazish uchun multimedia, virtual muzeylar, milliy o'yinlar kabi vositalardan foydalanish mumkin. Bu usul talabalarning qiziqishini oshiradi va ularning ma'naviy dunyosini boyitadi.

6. Mahalliy va xalqaro tajribalar. Mahalliy va xalqaro tajribalarni o'rganish va integratsiya qilish orqali tarbiya jarayonini boyitish mumkin. Boshqa xalqlarning ma'naviy qadriyatlari va etnopsixologik tajribalarini o'rganish va ulardan mos ravishda foydalanish milliy tarbiya tizimini yanada samarali qiladi.

7. Etnopsixologik tadqiqotlar va amaliyotlar. Etnopsixologik tadqiqotlar orqali olingan natijalarni ta'lim jarayoniga joriy qilish va amaliyotga tatbiq etish orqali talabalar tarbiyasini sifatliroq qilish mumkin. Buning uchun universitetlarda ilmiy tadqiqot markazlari tashkil etish muhim ahamiyatga ega.

Ushbu yondashuvlar talabalarning ma'naviy-ahloqiy tarbiyasini etnopsixologik qadriyatlar orqali rivojlantirishda muhim rol o'ynaydi. Bu mexanizmlar talabalarning o'z millati, madaniyati va tarixi haqida chuqur bilimga ega bo'lishini, ularni hurmat qilishini va asrashini ta'minlaydi.

Shaxs ma'naviy-axloqiy tarbiyasi dastlab oila sharoitida shakllanadi va jamiyat ma'naviyatini belgilovchi mezon sifatida namoyon bo'ladi. Buning asosida ta'lim muassasasida o'quvchi va talabalarning ma'naviy-axloqiy tarbiyasini ta'minlash va mustahkamlashda maxsus ta'lim-tarbiyaviy dasturlar asosida ma'naviy-axloqiy ishlar samaradorligi oshirib boriladi. Shu boisdan, madaniy merosdan, bugungi kun qadriyatlaridan to'g'ri foydalana olish, tarixdan to'g'ri xulosa chiqara bilish, o'z tarixiga va bugungi ahvoliga, madaniy merosi va ma'naviy qadriyatlariga, diniga va axloqiga va huquqiy amaliyotiga, turmush tarziga tanqidiy ko'z bilan qaray olish – Yangi O'zbekiston taraqqiyotining muhim ma'naviy asosidir. Mana shu ma'naviy asos har bir yosh avlodning ma'naviy-axloqiy tarbiyasini ta'minlashi bilan jamiyat ma'naviyati qaror topishi tabiiydir. Aksincha, bo'lsa esa har bir yoshni jamiyatimizda bo'layotgan o'zgarishlarni noto'g'ri talqin etishga olib keladi.

O'zbek xalqida ta'lim-tarbiyaning o'ziga xosligini inobatga olgan holda Vataniga, xalqiga, oilasiga, istiqloq g'oyalariga sadoqatli, fidokor, mustaqil fikrlaydigan, dunyoqarashi keng, e'tiqodi yuksak, iqtidorli, tashabbuskor, mas'uliyatli, ma'naviy va jismoniy barkamol avlod voyaga yetadi.



Ma'naviy-axloqiy tarbiyasi shakllangan talabalar o'z kasbining mas'uliyatini hamda jamiyat osoyishtaligini saqlash kabi vazifalarni anglab yetadi. Yuksak manaviyatli pedagoglar esa o'zi ta'lim beraligan talabalarini insonparvar, vatanparvar, axloqiy jihatdan pok, bilimli, kamtar, oliyjanob qilib tarbiyalaydi.

Ma'naviy-axloqiy tarbiya ilm-fan, falsafa, axloq, huquq, adabiyot va san'at, xalq ta'limi, ommaviy axborot vositalari, urf-odatlar, an'analar, din va boshqa ko'plab tarixiy amaliy va zamonaviy qadriyatlarning ta'sirida shakllanadi. Aynan shu qadriyatlar avvalo oilada hamda ta'lim muassasalarida ota-ona va pedagoglar ta'sirida shakllanadi.

O'zbek xalqi qadimdan ma'naviy-axloqiy tarbiyaga alohida e'tibor qaratgan. Bugungi kunda ma'naviy-axloqiy merosdan foydalanib, Yangi O'zbekistonning talablariga javob beradigan, o'zi egallagan kasbining mahoratli kadrlarini tarbiyalash har bir oliy ta'lim muassasasining muqaddas burchidir.

Bu burchni sharaf bilan ado etish oliy ta'lim muassasasida yosh avlod ongiga avlodlar shajarasi, kasb-kori, urf-odatlari, an'analari, tarbiya usullari, jamiyat taraqqiyotidagi o'rni, o'ziga xos ijobiy tarixmi singdirish, undan g'ururlanish hissini tarbiyalashdan boshlanadi. O'z yurtining tarixidan g'ururlangan inson o'z o'lkasi, millati, xalqi, tili, madaniyatidan g'ururlanishi, uni avavlab-asrashi, dunyoga ko'z-ko'z qilishi tabiiydir. Buning uchun ta'lim jarayonida talabalarning ongiga boshlab «siz tarixi boy, ulug' millatning farzandisiz», «sen ulug' mutafakkirlar, allomai- zamonlarni dunyoga keltirib, tarbiyalagan bobokalonlarning avlodisiz» kabi tushunchalarni singdirib bormoq lozim.

Mazkur vazifalarni amalga oshirishda talabalar o'zlariga qo'yilgan maqsadlarga erishish o'zlariga bog'liq ekanligini, ya'ni bu narsa ularning sobitqadam shijoatiga, to'la-to'kis fidokorligiga va cheksiz mehnatsevarligiga bog'liq ekanini anglab yetishlari kerak. Ya'ni talabalarning ma'naviy-axloqiy tarbiyasi davlat va jamiyatimiz taraqqiyotining asosiy shartidir. Shu boisdan ham talabalarning ma'naviy-axloqiy tarbiyasiga alohida e'tibor berish, ularni jamiyatimizning ijtimoiy, iqtisodiy va ma'naviy taraqqiyotida faol ishtirok etishlarini ta'minlash oliy ta'lim muassasalari professor-o'qituvchilarining burch va mas'uliyati hisoblanadi.

XXI asrda yashab samarali mehnat qilish, Yangi O'zbekistonning dunyo hamjamiyatidagi nufuzini oshirishda yosh avlodning hissasi katta bo'ladi. Shuning uchun yoshlarni chuqur bilimli, yuksak madaniyatli, mehnatsevar va tashabbuskor shaxslar etib shakllantirish oliy ta'lim muassasasida hayot tajribasiga ega, hayotda ko'pni ko'rgan ustozlarning va jamoatchilikning asosiy vazifasidir.

Ammo bugungi kunda axborot texnologiyalari, ijtimoiy tarmoqlar shiddat bilan rivojlanib borgan darvning taqozosi bilan ommaviy madaniyat ta'sirida milliy urf-odatlarimiz va axloqimizga zid keladigan xulq-atvori namoyon bo'lmoqda. Bu ma'naviy-axloqiy tarbiyaga oid ishlarining zaif jihatlarini tadqiq etish hamda



talabalarning ma'naviyatini oshirishda yangi ma'naviy-axloqiy tarbiya dasturlarini masofaviy ta'lim sharoitlariga mos tarzda ishlab chiqishni taqozo qilmoqda.

Shuni unutmaslik kerakki, insoniyat va millatlar takomili hech qachon milliy an'analarni poymol etish, axloqu odob qoidalarini mensimaslik evaziga emas, aksincha, insonni yuksak ma'naviyat, poklik va odob cho'qqisiga olib chiqishda namoyon bo'ladi .

Ta'lim oluvchilarning ongini, ruhiyatini, ismu jismini poklantirish hoziigi kundagi ma'naviy-axloqiy tarbiyaning asosini tashkil etmoqda. Bunga sabablar ko'p. Bir o'rinda o'tmish davrlar asoratidan qutilish ko'zda tutilsa, ikkinchi o'rinda inson tabiatida uchraydigan hamda ommaviy madaniyat ta'sirida xuruj qilib turadigan xatarlardan ogoh bo'lish ehtiyoji ham mavjud. Masofaviy ta'lim sharoitida talaba shaxsi millat qadriyatlariga teskari qo'ymagan holda va aksincha, boshqa millat ma'naviyatini chuqur his qilish va o'z milliy qadriyatini namoyish etish imkoniyatiga ega bo'lsa, milliy munosabatlarda do'stona iqtisodiy va ma'naviy muloqotda kasbiy mahoratini ifodalay olsa, ana shunda turli millatlarning ma'naviyatini ifodalovchi umumbashariy qadriyatlar o'sib boraveradi.

Ya'ni talabalarning ma'naviy-axloqiy tarbiyasi davlat va jamiyatimiz taraqqiyotining asosiy shartidir. Shu boisdan ham talabalarning ma'naviy-axloqiy tarbiyasiga alohida e'tibor berish, ularni jamiyatimizning ijtimoiy, iqtisodiy va ma'naviy taraqqiyotida faol ishtirok etishlarini ta'minlash oliy ta'lim muassasalari professor-o'qituvchilarining burch va mas'uliyati hisoblanadi. XXI asrda yashab samarali mehnat qilish, Yangi O'zbekistonning dunyo hamjamiyatidagi nufuzini oshirishda yosh avlodning hissasi katta bo'ladi. Shuning uchun yoshlarni chuqur bilimli, yuksak madaniyatli, mehnatsevar va tashabbuskor shaxslar etib shakllantirish oliy ta'lim muassasasida hayot tajribasiga ega, hayotda ko'pni ko'rgan ustozlarning va jamoatchilikning asosiy vazifasidir. Ammo bugungi kunda axborot texnologiyalari, ijtimoiy tarmoqlar shiddat bilan rivojlanib borgan darvning taqozosi bilan ommaviy madaniyat ta'sirida milliy urf-odatlarimiz va axloqimizga zid keladigan xulq-atvori namoyon bo'lmoqda . Bu ma'naviy-axloqiy tarbiyaga oid ishlarining zaif jihatlarini tadqiq etish hamda talabalarning ma'naviyatini oshirishda yangi ma'naviy-axloqiy tarbiya dasturlarini masofaviy ta'lim sharoitlariga mos tarzda ishlab chiqishni taqozo qilmoqda. Shuni unutmaslik kerakki, insoniyat va millatlar takomili hech qachon milliy an'analarni poymol etish, axloqu odob qoidalarini mensimaslik evaziga emas, aksincha, insonni yuksak ma'naviyat, poklik va odob cho'qqisiga olib chiqishda namoyon bo'ladi . Ta'lim oluvchilarning ongini, ruhiyatini, ismu jismini poklantirish hoziigi kundagi ma'naviy-axloqiy tarbiyaning asosini tashkil etmoqda. Bunga sabablar ko'p. Bir o'rinda o'tmish davrlar asoratidan qutilish ko'zda tutilsa, ikkinchi o'rinda inson tabiatida uchraydigan hamda ommaviy madaniyat ta'sirida



xuruj qilib turadigan xatarlardan ogoh bo‘lish ehtiyoji ham mavjud. Masofaviy ta‘lim sharoitida talaba shaxsi millat qadriyatlariga teskari qo‘ymagan holda va aksincha, boshqa millat ma‘naviyatini chuqur his qilish va o‘z milliy qadriyatini namoyish etish imkoniyatiga ega bo‘lsa, milliy munosabatlarda do‘stona iqtisodiy va ma‘naviy muloqotda kasbiy mahoratini ifodalay olsa, ana shunda turli millatlarning ma‘naviyatini ifodalovchi umumbashariy qadriyatlar o‘zida boraveradi. O‘z tarixini, ma‘naviyatini, qadriyatlarni o‘zi bunyod etuvchi xalq, elat va millatlarga endi shunday imkoniyatlar yaratilmoqdaki, xalqimizning ham jahon xalqlariga faxrlanib, iftixor tuyg‘usi bilan ko‘z-ko‘z qiladigan fazilatlarini qanchalik mo‘l-ko‘l bo‘lsa, texnologiyalar ta‘siridagi axborot xatarlarini bartaraf etishga qodir yoshlarning ma‘naviy axloqiy tarbiyasi darajasi oshib boradi. Buni milliy urf-odatlarimiz, axloq odobimiz, chin insoniy ne‘matlarimiz taqozo etadi. Yoshlar ma‘naviy-axloqiy tarbiyasida milliy an‘analardan samarali foydalanish, milliy sport o‘yinlari va musobaqalarini, boshqa millat ma‘naviyatiga hurmat bilan munosabatda bo‘lish, yoshlar kitobxonligini tashkil etish, masofaviy ta‘limda til, muloqot madaniyatiga alohida e‘tibor berish, ularning bo‘sh vaqtini ijtimoiy foydali mehnat vositasida samarali tashkil etish talaba ma‘naviy-axloqiy tarbiyasini shakllantirishning muhim sharti hisoblanadi. Mamlakatimizda har bir fuqaroning ma‘naviy-ma‘rifiy yuksakligiga erishish davlatimiz tomonidan amalga oshirilayotgan islohotlarning asosiy yo‘nalishlaridan birini tashkil etar ekan, bu boradagi ishlarning tamal toshlari aynan pedagoglarning muqaddas burchlari hisoblanadi. Talabalarning ma‘naviy-axloqiy tarbiyasini shakllantirish bilan bog‘liq ishlar quyidagi yo‘nalishlarda amalga oshiriladigan ta‘limiy va tarbiyaviy tadbirlar vositasida olib borilmoqda, bu albatta masofaviy ta‘limga ham taalluqlidir :

- talabalar orasida amalga oshiriladigan madaniy-ma‘rifiy tadbirlar tarzida;
- maktabgacha tarbiya muassasalari, umumta‘lim maktablari, oliy va o‘rta maxsus ta‘lim o‘quvchi, talabalari, yoshlar va boshqa toifadagi fuqarolar o‘rtasida olib borilayotgan tadbirlar; - ommaviy-axborot vositalari, matbuot vositasida amalga oshirilayotgan ma‘naviy-ma‘rifiy tadbirlar;
- ma‘naviy-axloqiy tarbiyaga oid ishlarni takomillastirish, samaradorligini oshirish bilan bog‘liq ilmiy-nazariy, ilmiy-amaliy va ilmiy-metodik yo‘nalishlarda tadqiqot ishlari olib borish, sotsiologik tadqiqotlar o‘tkazish;
- xalqlar, millatlararo do‘stlik-birodarlik, ahillik, totuvlikni ta‘minlashga qaratilgan tadbirlar;
- oliy ta‘lim muassasalarida talabalarning ma‘naviy-axloqiy tarbiyasi darajasini oshirish, ularning bo‘sh vaqtini samarali tashkil etish maqsadida amalga oshiriladigan onlayn tadbirlar.



Mazkur yo‘nalishlarda olib boriladigan ma‘naviy-axloqiy ishlar oliy ta‘lim muassasalarining masofaviy ta‘lim sharoitida muloqot xususiyatlarini o‘zida qamrab olishi dardkor. Ushbu tadbirlar majmuasi oliy ta‘lim muassasasida talabalarning ma‘naviy-axloqiy tarbiyasini keng targ‘ib etishga qaratilgan maxsus teleko‘rsatuvlar, onlayn va teleradio darslari tashkil etish yoshlarning ma‘naviy ongi va tafakkurini shakllantirishda ijobiy natijalar beradi. Masofaviy ta‘limda ko‘rgazmali targ‘ibot vositalarini shakl va mazmun jihatidan rangbarangligini ta‘minlash, ma‘naviyat siymolarining hayoti va ijodiga bag‘ishlangan kechalar hamda anjumanlar tashkil etish va ularning ijodlari asosida hujjatli filmlar yaratish va ularni yoshlar tarbiyasidagi ahamiyatini ta‘minlash ma‘naviy barkamol fuqarolarni tarbiyalashda muhim vosita hisoblanadi. Ijtimoiy-ma‘naviy muhitni yanada sog‘lomlashtirish, diniy aqidaparastlikning oldini olish, ma‘naviy tubanlik, zo‘ravonlik kabi illatlarni batamom yo‘q qilishga erishish maqsadida har bir ta‘lim-tarbiya muassasalarida maxsus «ma‘naviyat kunlari», «ma‘naviyat saboqlari» o‘quvlari, muzey, tarixiy qadamjolariga virtual sayohatlar, O‘zbekiston, mehnat qahramonlari va taniqli shaxslar bilan uchrashuvlar o‘tkazish, yoshlar klublari tashkil etish kabi tadbirlarning tashkil etilishida oliy ta‘limda masofaviy ta‘limning imkoniyatlaridan keng foydalanish albatta ijobiy samara berishi tabiiy. Xulosa qilib aytish mumkinki, o‘zbek xalqining ma‘naviy-axloqiy sifatleri, milliy odat, an‘ana va fazilatlar borki, ular boshqa xalqlarda yo‘qligidan tashqari, insoniyat ma‘naviyatining nodir zarvaraqlari sifatida boshqalarda hayrat uyg‘otishi tabiiydir.

Adabiyotlar:

1. I.A.Karimov. «Bizdan ozod va obod Vatan qolsin». «O‘zbekiston», 1994. – B. 104-105.
2. Azroyans E. Globalizatsiya: katastrofa ili put k razvitiyu/ – M.: «Novyy vek», 2002.
3. Musurmonova O., Norqulov X., Abduraximova F. Mahallada oila farovonligi: milliy qadriyatlar va odob durdonalari. Uslubiy qo‘llanma. – Toshkent: “Mahalla va oila” nashriyoti, 2023. – 140 b.
4. Nig‘matova. Sh.N. O‘zMu xabarnomasi “O‘spirin yoshlarda o‘zini-o‘zi anglashning sifat ko‘rsatkichi”.
5. Ниг‘матова.Ш.Н. Образования и наука в XXI века ISSN:2782-4365(научно-образовательный электронный журнал) ISSN:2782-4365 УДК 37,ББК 94.
6. Ниг‘матова.Ш.Н. Выпуск №33(том3)(декабр,2022)Дата выхода в свет:03.01.2023 «Консултация жараёнида ўзини-ўзи англашнинг ижтимоий психологик хусусиятларини назарий-методологик аспекти ва замонавий талаблари» <https://doi.org/10.5281/zenodo.7561022> (469-476)бет.

РЕЗЮМЕ

Ushbu maqolada ma‘naviy-ahloqiy tarbiya mexanizmlarini etnopsixologik qadriyatlar asosida takomillashtirish masalalari o‘rganilgan.

РЕЗЮМЕ

В данной статье рассматриваются вопросы совершенствования механизмов духовно-нравственного воспитания на основе этнопсихологических ценностей.

SUMMARY

This article discusses the issues of improving the mechanisms of spiritual and moral education based on ethnopsychological values.